

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Qaypenova Tazaxan O'tenazarova

Nukus Davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti "Pedagogika" kafedrasи
stajor o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13763498>

Annotaciya. Ushbu maqola maqsadi talabalarga tanqidiy fikrlashni shakllantirishning texnologiyalarini o'rgatish. Maqola aynan oliy ta'lif o'quv yurti talabalariga asoslangan.

Tanqidiy fikrlash — bu odamlardan fikr yuritishni va ularning e'tiqodlari va harakatlarini boshqaradigan qarorlar qabul qilishga e'tibor berishni talab qiladigan fikrlash usuli.

Kalit so'zlar: Talaba, fikr, texnologiya, bilim, ta'lif tarbiya, rivojlanish,

TECHNOLOGY OF DEVELOPING CRITICAL THINKING AMONG STUDENTS.

Abstract. The purpose of this article is to teach students the techniques of forming critical thinking. The article is based on the students of the higher education institution. Critical thinking is a way of thinking that requires people to reflect and pay attention to making decisions that guide their beliefs and actions.

Keywords: Student, thought, technology, knowledge, education.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. Цель данной статьи – научить студентов приемам формирования критического мышления. Статья написана на примере студентов высшего учебного заведения. Критическое мышление — это образ мышления, который требует от людей размышлять и уделять внимание принятию решений, которые определяют их убеждения и действия.

Ключевые слова: Студент, мысль, технология, знание, образование, развитие.

Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir. Shu maqsadda 2024-yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”, deb e'lon qildik.

Shunday ekan har bir yosh oz ishining ustasi erkin fikrlay oladigan inson bolishi uchun yoshlarda tanqidiy fikrlashning texnologiyalarini rivojlandirishimiz kerak. Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi birinchi navbatda talabani qiziqtirishga (unda tadqiqotchilik, ijodiy faoliyoti uyg'otish), so'ngra unga materialni tushunish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, keyin olingan bilimlarni umumlashtirish va amaliyotda qo'llashda yordam

berishga qaratilgan strategiya va metodlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Maqolamizda biz talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ta’lim mazmunining tuzilishini hisobga olish va fikrlashning tabiatini va turlari, xususiyatlari, o‘xshashlik va farqlari, tanqidiy fikrlashning mazmunli komponentida ijodiy fikrlash haqidagi bilimlarni o‘z ichiga olishi kerakligidan kelib chiqdik. Bundan tashqari, talabalar tanqidiy fikrlash, tanqid va o‘z-o‘zini tanqid qilish kabi tushunchalar haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak. Pedagogik tizimda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning darsning maqsadi, mazmuni va tuzilishini aniqlashda ishtirok etishini ta’minlaydi, chunki ular kompyuter yordamida turli xil va keng qamrovli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega.

“Taqidiy fikrlash” tushunchasi XX-asr o‘rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan.

Birinchilardan bo‘lib tanqidiy fikrlash atamasi K. Popper tomonidan ishlataligani. Unga ko‘ra har bir tirik organizm muammolarni “hal qiluvchi” vazifasini bajaradi. Atrofdagi ma’lumotlar dunyo tirik organizmning ma’nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi bu hodisani oldindan beradi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash – haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi. Tanqidiy fikrlash masalasi bo‘yicha ish olib borgan xorijiy mutaxassislardan, E. De Bono, J.Daniya, M. Lipman, D. Halpern, D. Klouz. A. E. Petrovlarning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, bunda inson o‘z tafakkurini va uning to‘g‘riligini o‘rganadi. A. Veretennikova tanqidiy fikrlashni belgilashda, uni baholashni shakllantirishga qaratilgan ruhiy holatlar, xususiyatlar va jarayonlar tizimi sifatida taqdim qiladi.

V.A.Shamis va L.A.Malts ta’kidlaganidek, tanqidiy fikrlash – xatolarni topish va ularni tuzatishni o‘z ichiga oladi.


I.A.Pshonkovskayaning asarlarida tanqidiy fikrlash – aks ettirish va baholashning murakkab jarayoni, shuningdek unga ijodiy fikrlash asos sifatida qaraladi. Uning fikricha, ijodiy va tanqidiy fikrlash jarayonlari o‘zaro bog‘liq deb qaraladi.

Taqidiy fikrlashning eng to‘liq tavsifini taniqli monografiya muallifi D. Halpern bergan, ya’ni unga ko‘ra: “Taqidiy fikrlash – bu kerakli yakuniy natijaga erishish ehtimolini oshiradigan kognitiv texnikadan foydalanishdir”. Ushbu ta’rifda tanqidiy fikrlash – fikrlashni nazorat qilish, asoslash va maqsadga muvofiqligi bilan ajralib turadigan narsa sifatida va muammolarni hal qilish, xulosalar chiqarish, ehtimoliy baholash va qaror qabul qilishda qo‘llaniladigan fikrlash turi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, bunda fikrlovchi muayyan vaziyat va hal qilinadigan vazifa turi uchun asosli va samarali bo‘lgan ko‘nikmalardan foydalanadi.

Taqidiy fikrlash-bu qo’llab-quvvatlash nuqtasi, tabiiy g’oyalar va ma’lumotlar bilan o‘zaro aloqa qilish usuli. Biz shu ma’lumotni tanlash muammozi bilan ishlaymiz.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi quyidagilarni o‘z ishiga oladi.

1-jadval



Fikr inson faoliyati, uning o'zligini kuchi, qudratini, o'zligini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifatdir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy xarakatlantiruvchi kuch bo'lganligi uchun fikr rivojining tarixi inson munosabatini, xayotning belgilovchi asosiy ijtimoiy tamoyillar tarixiga bog'liq.

Tanqidiy fikrlash qobiliyati ta'limi axborotlashtirish sharoitida olingan o'quv va ilmiy ma'lumotlarni malakali tahlil qila oladigan, o'rganilayotgan faktlar, normalarning muvofiqligini aniqlash asosida o'z mulohazalarini shakllantirishi va qadriyatlar, o'zi va atrofdagi voqelikka tanqidiy munosabatni rivojlantirishi kerak bo'lgan talabalar uchun alohida ahamiyatga ega.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish haqida professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi talabalarning olingan ma'lumotlardan asosiysini ajratib olish, undagi qarama-qarshi fikrlarni aniqlash, asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o'zaro munosabatlarning maxsus tashkil etilgan jarayondir. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim, birinchi navbatda, talabalarning bilish faoliyatini boshqarish jarayonidir. Bilish faoliyati tarkibida tanqidiy fikrlashning 11-o'rnini aniqlash uchun xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarining konsepsiylarida shakllantirilgan ushbu turdag'i fikrlashning asosiy xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan tanqidiy fikrlashning asosiy xususiyatlari talabalarning o'quv-bilish kompetensiylarining tizimli komponentlari bo'lib, ular tashkil etish, maqsad qo'yish, rejalashtirish, tahlil qilish, fikrlash, o'z-o'ziga baho berish usullarini o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning yuqori darajasi oliy ta'limdagi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning o'quv-bilish kompetensiylarini izchil rivojlantirishni ta'minlash imkonini beradi.

- An'anaga ko'ra, tanqidiy fikrlashning turli xil shakllanish ta'riflari mavjud:
- Javob yoki xulosaga kelish uchun axborotni faol, mohirona shakllantirish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash jarayoni.
- Aniq, oqilona, ochiq fikrli va asosli intizomli fikrlash.
- Maqsadli, o'z-o'zini tartibga soluvchi xulosa, sharhlash, tahlil qilish, baholash va xulosa qilish, shuningdek, ushbu xulosaga asos bo'lgan dalillar, kontseptual, uslubiy, mezon yoki kontekstual tushunchalarni tushuntirish“.
- E'tiqodimizni shakllantirishda aqldan foydalanish talab etiladi.
- Qiziqarli skeptitsizm san'ati va mahorati (McPeck, 1981)
- Tartibga solish va aniqlashtirish, samaradorlikni oshirish, fikrlashdagi xatolar va noto'g'rilikni tan olish kabi narsalar orqali o'z fikrlash haqida o'ylash. Tanqidiy fikrlash qattiq fikrlash emas va u muammolarni hal qilishga (o'z tafakkurini takomillashtirishdan tashqari) yo'naltirilmaydi. Tanqidiy fikrlash ichki yo'naltirilgan bo'lib, fikrlovchining ratsionalligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Inson tanqidiy fikrlash yordamida muammolarni hal qilmaydi, tanqidiy fikrlash yordamida o'z fikrlash jarayonini yaxshilaydi.
- Ehtiyyotkorlik bilan tahliliy aniqlashga asoslangan baholash.
- Tanqidiy fikrlash — bu odamlardan fikr yuritishni va ularning e'tiqodlari va harakatlarini boshqaradigan qarorlar qabul qilishga e'tibor berishni talab qiladigan fikrlash usuli. Tanqidiy fikrlash odamni mantiqiy xulosalar chiqarishga, murakkab ma'lumotlarni qayta ishslashga, narsalarga turli tomonlardan qarashga o'rgatadi, shuning uchun ular ishonchliroq xulosalar chiqarishi mumkin .
- Tanqidiy fikrlashning yettita tanqidiy xususiyati mavjud: izlanuvchan va ishtiyoqli, har xillarga ochiq, tizimli fikrlashga qodir, analistik, haqiqatda qat'iyatli, tanqidiy fikrlashda ishonchli va keyin etuk.

Xulosa qilib aytganimizda tanqidiy fikrlash — fikrlashni nazorat qilish, asoslash va maqsadga muvofiqligi bilan ajralib turadigan narsa sifatida va muammolarni hal qilish, xulosalar chiqarish, ehtimoliy baholash va qaror qabul qilishda qo'llaniladigan fikrlash turi sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, bunda fikrlovchi muayyan vaziyat va hal qilinadigan vazifa turi uchun asosli va samarali bo'lgan ko'nikmalardan foydalanadi. Tanqidiy fikrlash-bu qo'llab-quvvatlash nuqtasi, tabiiy g'oyalar va ma'lumotlar bilan o'zaro aloqa qilish usuli. Biz shu ma'lumotni tanlash muammosi bilan ishlaymiz. Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyalari hozitgi vaqta kelajagimiz bolgan yoshlar uchun juda zarur.

REFERENCES

1. 2024 yil Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili deb e'lon qilindi. Shavkat Mirziyoyev
2. INDIVIDUAL TA'LIM TAMOYILLARI ASOSIDA TALABALARING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. OMONOVA MUXLISA DO'STNAZAR QIZI. 2023 yil, 11-s.
3. Загашев И.О., Заир-Бек С.И. Критическое мышление: технология развития: пособие для учителя. – СПб; Альянс «Дельта», 2003.
4. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lif maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslar: Ped. Fan. dokt. Diss-T: 1998
5. INDIVIDUAL TA'LIM TAMOYILLARI ASOSIDA TALABALARING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. OMONOVA MUXLISA DO'STNAZAR QIZI. 2023 yil, 10-s.
6. Facione, Peter A. „Critical Thinking: What It is and Why It Counts“ (PDF). insightassessment.com (2011). 2013-yil 29-iyulda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2012-yil 4-avgust.
7. Mulnix, J. W. (2010). "Thinking critically about critical thinking". Educational Philosophy and Theory 44 (5): 471. doi:10.1111/j.1469-5812.2010.00673.x.
8. Cite document. Critical Thinking: A Question of Aptitude and Attitude? 37573705, doi 10.5840 inquiryctnews 20102524
9. Carmichael, Kirby; letter to Olivetti, Laguna Salada Union School District, May 1997.
10. TheFreeDictionary.com. Qaraldi: 2016-yil 30-noyabr.
11. Book Reviews and Notes : Teaching Thinking Skills: Theory and Practice. Joan Baron and Robert Sternberg. 1987. W.H. Freeman, & Co., New York. 275 pages. Index. ISBN 0-7167-1791-3. Paperback". Bulletin of Science, Technology & Society 8 (1): 101. February 1988.
12. Facione, Peter A.; Facione, Noreen C. (March 1993). "Profiling critical thinking dispositions". Assessment Update 5 (2): 1–4.